



TA'LIM FIDOYILARI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

2021-YEAR
2-JANUARY





«TA'LIM FIDOYILARI» ilmiy-uslubiy jurnali



«INTELLECT EDUCATION OFFICIAL»
NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI

«TA'LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

2-SON, 2-JILD YANVAR - 2021

2-QISM

Google

@mail

Яндекс



WWW.TALIMFIDOYILARI.UZ

Issue 2. 2 January 2021



TAHRIRIYAT

Editor in chief

Abdurahmonov Abdushokir Abdukarimovich
SVXT boshqarma boshlig'i

Preparing for publishing

Hakimova Aziza Xaydaraliyevna

Bosh muharrir

Abdurahmonov Abdushokir Abdukarimovich
SVXT boshqarma boshlig'i

Nashrga tayyorlovchi

Hakimova Aziza Xaydaraliyevna

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

«TA'LIM FIDOYILARI»
ILMIY-USLUBIY JURNALI

Ismoilov Akram Suyunovich

Guliston tumani XTB mudiri

Bayturayeva Shoira Karimovna

Guliston tumani 1-maktab direktori

Bayqulova Navbahor Sultanovna

Sirdaryo tumani 31-maktab direktori

Umaraliyev Jaloliddin Xaydaraliyevich

Sirdaryo tumani 31-maktab ona tili fani o'qituvchisi

Axrorova Nilufar Uktamovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti,

turizm kafedrasida 2 magistranti

Xidirboyev Fozil Oybek o'g'li

Guliston davlat universiteti fizika-matematika fakulteti

10-18-guruh 3-bosqich talabasi

Qambarov Ma'ruf Abduhakimovich

Sirdaryo viloyati XTB metodika bo'limi rahbari

Rahmonova Munosibxon Xurramjonovna

Guliston tumani filologiya fanlari metodisti

Akbaraliyev Muxriddin Muxiddinovich

Kompyuter xizmatlari markazi

Umaraliyev G'ayrat Xaydaraliyevich

Kompyuter xizmatlari markazi

Nurmuxammedova Dildora

Sirdaryo viloyati Guliston tumani

1-maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Qobil Kubayev Umarovich

Guliston davlat universiteti dotsent



100	HOW TO TEACH STUDENTS TIME CLAUSES IN EASY WAYS. IBRAGIMOVA DILOROM ABDURAKHMANOVNA	418
101	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY TUYG'ULARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI .IBRAGIMOVA N.M.	426
102	UMUMTA'LIM FANLARI TARKIBIDA O'QUVCHI YOSHLARDA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASI NORMALARINI SHAKLLANTIRISH BABAYEVA VASILA TOSHPULATOVNA BABAYEVA LOLA TASHPULATOVNA BOBOYEV XURSHID MANSUROVICH	429
103	WORD-FORMATION IN ENGLISH NASIMOV FARRUX FERUZOVICH	438
104	BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISHNI O'RGATISH ALMATOVA KAMOLA SHOYIMNAZAROVNA	444
105	CHET TIL O'QITISHNING BOSHLANG'ICH BOSQICHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI PIRMATOVA SAODATXON TOLIBOVNA	448
106	INNOVATIONS IN EDUCATION. KHASANOVA M..KASIMOVA U.R.	452
107	IQTIDORLI O'QUVCHILARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA YO'NALTIRISH XALIMOVA XOLNISO SOLIJON QIZI.RUSTAMOVA XURSHIDA YUSUPOVNA	459
108	O'ZBEKISTONDA RAQOBATBARDOSH IQTISODIYOT SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI YUSUPOV XAKIMBOY RO'ZIMOVICH	462
109	BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI KREATIV FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI ISAYEVA NARGIZA TUYCHIEVNA	466
110	ISHLAB CHIQRISH IMKONIYATLARI CHIZIG'I.OXUNJON QULLIYEV ANVAR O'G'LI	470
111	ISIRIQ MO'JIZASI.QOILOVA YULDUZ ASKAROVNA	473
112	TURIZMGA OID REKLAMALAR MATNLARIDA LEKSIK XUSUSIYATLARNING O'RNI IZZATILLAYEV A'ZAMJON AKRAMJON O'G'LI	477
113	TASHKILOTLARDA KADRLARNI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH STRATEGIYASI JALOLOVA DILDORA JAMALOVNA	481
114	SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYANING ROLI ABDURAYIMOV FERUZ HAKIMOVICH	485
115	JISMONIY HARAKAT – SOG'LOMLIK GAROVI.IBRAGIMOVA HALIMA RAHIMJON QIZI	489
116	DASTLABKI O'RGATISH BOSQICHIDA 10 -13 YOSHLI VOLLEYBOLCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR SALIMOVA MARG'UBA NE'MATOVNA	493
117	O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR SPORTINING BIR QANCHA TURLARINI RIVOJLANTIRISH VA TA'LIM TIZIMIDA QO'LLASHNING USULLARI.XASANOVA SHAXLO TO'QSONOVNA	497
118	SAVOD O'RGATISH DAVRIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI. JO'RAQULOVA INOBAT HAMDAMOVNA	504
119	BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI JO'RAYEVA UMIDA JABBAROVNA	506



ISHLAB CHIQUARISH IMKONIYATLARI CHIZIG'I

Oxunjon Qulliyev Anvar o'g'li
Buxoro davlat universiteti
iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Inson ehtiyoji cheksiz, ularni qondirish uchun resurslar cheklangandir.
Kalit so'zlar: ehtiyojlar cheksizligi, daromad, resurs, muqobil imkoniyatlar, ishlab chiqarish imkoniyatlari, sarflanadigan resurslar.

Inson ehtiyoji cheksiz, ularni qondirish uchun resurslar cheklangandir. Har bir jamiyat bir xil muammoga - imkoniyatlar cheklanganlik muammosiga duch keladi. Har bir oilaning daromadi, jamg'argan pulining miqdori va qarz olish imkoniyati cheklangandir. Korxonada esa o'z daromadlari, jamg'armasi va qarz to'lash imkoniyati jihatdan cheklangan. Huddi shuningdek davlat ham soliq solish va kredit olish imkoniyati jihatdan cheklangandir.

Har bir odam duch keladigan muammo shundan iboratki, ne'matlarning bir turkumini tanlab olishi bilan boshqa ne'matlarga ega bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Cheklanganlik tanlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ya'ni, biror narsaga ega bo'lish uchun boshqa narsadan voz kechish kerak. Ana shu vaziyat muqobil qiymat degan tushunchani keltirib chiqaradi. Faraz qilaylik, televizor sotib olmoqchi bo'lib pul jamg'arib yuribsiz. Ammo pul to'plab yurganingizda kompyuterga qiziqib qoldingiz. Ikkalasini sotib olishga pulingiz yetmaydi. Siz televizor yoki kompyuter sotib olishingiz mumkin. Aytaylik Siz televizor sotib olishni keyinga qoldirib kompyuter sotib olishga ahd qildingiz. Agar bitta kompyuter o'rniga ikkita televizor sotib olish mumkin bo'lsa, bitta kompyuterning muqobil qiymati ikkita televizorning narxi bo'ladi. Yana bir misol, davlat o'z harbiy havo kuchlari uchun zamonaviy qiruvchi samalyotlar sotib olishdan voz kechib, mamlakatda uzun temir yo'l qurishga kirishsa, temir yo'l qurishning muqobil qiymati baquvvatroq harbiy havo kuchlari bo'ladi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Agar o'quvchi kollejni tugatib oliygohda o'qishni davom ettirsa, u oladigan oliy ma'lumotning muqobil qiymati o'qishga kirmay ishlab topgandagi olimay qolgan maosh hisoblanadi.

Tanlash muammosi va muqobil imkoniyatlarni ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i yordamida ifodalash mumkin. Aytaylik bir mamlakatda kompyuter va televizor ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Ammo ikkala mahsulotni ishlab chiqarish uchun bir xil resurslar talab qilinadi deylik. Faraz qilaylik mamlakat resurslarini faqat kompyuterlar ishlab chiqarishga sarflasa, 60 ming dona kompyuter




ishlab chiqarish mumkin. Aksincha resurslarni faqat televizorlar ishlab chiqarishga sarflasa 30 ming dona televizor ishlab chiqarishi mumkin.

Endi bitta kompyuter ishlab chiqarish uchun sarflanadigan resurslar ikkita televizor ishlab chiqarish uchun sarflanishini bilgan holda quyida ishlab chiqarish imkoniyatlar jadvalini tuzamiz:

Mahsulot	Muqobil imkoniyatlar			
Kompyuter - ming dona	0	10	20	30
Televizor - ming dona	60	40	20	0

Endi jadvaldagi muqobil imkoniyatlarga e'tibor bering. Agar mamlakat 10 ming dona kompyuter ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchi bo'lsa, 20 ming dona televizor ishlab chiqarishdan voz kechishi lozim va aksincha 20 ming dona televizor ishlab chiqarish uchun 10 ishlab chiqarishdan voz kechiladi. Kompyuter muqobil qiymati $20 : 10 = 2$ teng bo'lsa, televizor muqobil qiymati $10 : 2 = 0,5$ ga teng bo'ladi.

Jadvaldagi foydalanib, ishlab egri cizig'ini yasaymiz.



ma'lumotlardan chiqarish imkoniyatlari (1-rasm)


Grafikni tahlil qilib ko'ramiz. Unda joylashgan A, B va D nuqtalar vaziyatiga e'tibor beramiz. Birinchi B nuqta turgan joyga qarang, bu nuqta ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i ustida joylashgan. Agar nuqta bu chiziqning qayerida bo'lmasin ustida joylashgan bo'lsa, resurslardan to'la foydalanilayotgan bo'ladi. Biz qurgan grafikda B nuqta shunday joylashgan. Faqat bunda mamlakat to'liq resurslardan foydalangan holda 20 ming dona kompyuter va 20 ming dona televizor ishlab chiqarish imkoniyatini tanlagan va amalga oshirgan. A nuqta joylashgan vaziyat esa mamlakat turli sabablarga ko'ra, masalan mehnat resurslarining yetishmasligi yoki kapital resurslarning rivojlanmaganligi kabi sabablarga ko'ra resurslardan to'la foydalanilmayotganini bildiradi. D nuqta esa ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idan tashqarida joylashgani ushuncha bunday imkoniyatga erishish mumkin emasligini ifodalaydi. Masalan, mavjud resurslar yordamida ham 60 ming dona televizor ham 20 ming dona kompyuter ishlab chiqarish mumkin emas.




Savol tug'iladi: ishlab chiqarish imkoniyatlar egri chizig'ining vaziyati o'zgarishi mumkin? Albatta, bunda quyidagi holatlar bo'lishi mumkin:

- resurslarning kamayishi va tugab borishi bilan ishlab chiqarish hajmi ham kamayadi, bunda ishlab chiqarish imkoniyatlar egri chizig'i chap tomonga siljiydi (2-rasm);

- resurslar mamlakatda resurslar ko'paysa ya'ni mahsulot uchun zarur bo'lgan homashyo konlari topilsa, ishlab chiqarish imkoniyatlar egri chizig'i o'ng tomonga siljiydi (3-rasm).



2-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatining kamayishi



3-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatining kengayishi

ADABIYOTLAR:

1. www.lex.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.ziyonet.uz.